M. B. Usmanova,
G. A. Amrulloyeva, M. Q. Yusupova,
Sh. X. Ergasheva, M. M. Numanova

Ona tili
4-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik



Yangi nashr

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

Toshkent – 2026

Usmanova M. B.
Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism / M. B. Usmanova, G. A. Amrulloyeva, M. Q. Yusupova, Sh. X. Ergasheva, M. M. Numanova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2026. – 176 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahridagi 328-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi;

M. M. Umarova – Toshkent shahridagi 222-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar


Husnixat daqiqasi


O‘ylab ko‘ring!


Yozma bajaring


Juftlikda bajaring


Og‘zaki bajaring


Savollarga javob bering


Yodda tuting!


QR-kodni skanerlang


Bu qiziq!


Loyiha ishi


Uyga vazifa


Dars yakuni

© M. B. Usmanova va boshq.
© “Novda Edutainment”, 2026

Aziz bolajonlar!

Qarshingizda tilimizning bebaho boyligini o‘zida mujassam etgan Ona tili darsligi turibdi.

Bu kitob sizni zeriktirmaydi, aksincha, chuqur o‘ylantiradi, yuzingizga tabassum yugurtiradi, do‘stlar bilan bahslashib haqiqatni topishga chorlaydi va o‘zining kutilmagan topshiriqlari bilan har qadamda hayratga soladi.

Har bir vazifaga ijodiy yondashib, uni diqqat va mehr bilan bajaring. Shundagina siz o‘z fikringizni ravon bayon etishni, so‘z qudratidan o‘rinli foydalanishni va savodli yozishni puxta o‘rganasiz. Unutmang, o‘z ona tilini mukammal egallash kelajakdagi har qanday yutuq va muvaffaqiyatning eng mustahkam poydevoridir!

Tilimizning sir-asrorlarini kashf etish yo‘lidagi qadamlaringiz bardavom bo‘lsin!



Mavzu: **Mustaqillik kuni**

Aa *Ona yurtim – oltin beshigim.*



Vatan – kishilarning tug‘ilib o‘sgan joyi, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmuyi.

“Vatan” arabcha so‘z bo‘lib, dastlab ***“yashash joyi”*** degan ma’noni anglatgan. Ko‘plab tillarda Vatan ***“Ota yurt”*** deb atalsa-da, o‘zbek tilida aynan ***“Ona yurt”*** atamasi ishlatiladi. Bunda inson o‘z Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbatini go‘yo onaga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtiromiga qiyoslaydi.

1-mashq. Ko‘chiring. Maqollarning ma’nosini izohlang.

1. Vatan qadrini bilmagan, o‘z qadrini bilmas.
2. Ona yurting omon bo‘lsa, rang-ro‘ying somon bo‘lmas.
3. Vatani borning baxti bor.

2-mashq. She’rni ifodali o‘qib ma’nosini izohlang. So‘roq va his-hayajon gaplarni toping va yozing.


Mustaqillik[2] ne demak,
Ne demakdir istiqlol?
Buni bilmog‘ing kerak,
Ma’nosini dilga sol.

G‘ururing solib dilga,
Tezroq ulg‘ay, top kamol.
Erka farzandsan elga,
Senikidir istiqbol!

Jumaniyoz Jabborov

1. Nutq nima?
2. Nutq insonga nima uchun kerak?
3. Insonlarga uzoq masofadan turib muloqot qilishga nima yordam beradi?
4. Nutqning qanday turlari bor?

3-mashq. Bu tushunchalarni nima birlashtirishini ayting.



- **Ayni damda sinfingizda kim nutqning qaysi turidan foydalanyapti?**

Og‘zaki nutq **– nutqning so‘zlashuv shakli.**

4-mashq. O‘qing. Berilgan gaplarda nutqning qaysi turi (og‘zaki yoki yozma nutq) qo‘llanganini aniqlang.

1. O‘qituvchimiz bizga Vatanimizning go‘zalligi haqida so‘zlab berdi.
2. Diyora sayohati davomida kutubxonaga[2] qilgan tashrifi haqida dugonasiga gapirib berdi.
3. Akmal chet eldagi do‘stiga elektron pochta orqali xat yozdi.
4. Samira hayvonlar haqidagi kitobni katta qiziqish bilan o‘qidi.

- **Og‘zaki nutqni ifodalayotgan gaplarni ko‘chiring.**



5-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, maqollarni ko‘chiring.

1. Ovqatni … (tuz, so‘z, muz) mazali qiladi, odamni – so‘z.
2. Til – … (bosh, jahl, aql) o‘lchovi.
3. Yaxshi so‘z – yurakka … (bardam, malham, hamdam), yomon so‘z – yurakka g‘am.
4. Tilingda bo‘lsa … (boling, noring, doring), kulib turar iqboling.

- **Maqollarni izohlang.**

Maqol – xalq hayotiy tajriba asosida yaratgan, ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora yoki gap. Uni o‘z o‘rnida qo‘llash nutqni ta’sirli, jozibador qiladi.

6-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, hikmatli gaplarni ko‘chiring.

1. Ona … – oltin beshiging[1].
2. O‘z … – o‘lan to‘shagim.
3. Kishining o‘zi yetmagan yerga … yetar.
4. Til qalbning … .
5. Ona yerning … ona sutidek aziz.
6. Yurtni dedim, … kirdim.

Foydalanish uchun so‘zlar: yurting, so‘zi, uyim, yuzga, ko‘zgusidir, tuprog‘i.

- **Yuqoridagi hikmatli gaplardan birini tanlang va uning ma’nosini 3–4 ta gap bilan izohlang.**



Mavzu: Takrorlash

Aa *Vatansiz inson – kuysiz bulbul.*

bulbul
LUG'AT

Bulbul – kichkina sayroqi qush, qadimdan uning yoqimli ovozi insonlarni hayratga solib, o‘ziga maftun etib keladi. Bulbullarning xonishi yoqimli bo‘lishiga qaramay, ko‘rinishi unchalik go‘zal emas. Bulbullar juda tez uchishi bilan ham mashhur. Ularning uchish tezligi 50 km/h gacha yetadi.

1



1-mashq. Asosdosh so‘zlarni toping va yozing.

Qadimgi vaqtlarda faqat og‘zaki nutq bo‘lgan. Keyinchalik, nutqni masofadan uzatish uchun zarurat paydo bo‘lgach, odamlar rasm va chizmalarni ixtiro qilishgan. Rasmli yozuvlar shu tariqa paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda ham rasmli[3] va rasmsiz, ya’ni yozuvli va yozuvsiz belgilar amalda qo‘llaniladi. Siz ko‘chalardagi yo‘l belgilari va qoidalarni eslang. Shunda gap nima haqidaligini tushunib olasiz.

2-mashq. Yo‘l haqidagi maqollarni o‘qing va izohlang.

Yo‘l bilmasang, yo‘lchiga boq.

Yurardan avval yo‘l axtar.

Hunar bilgan – och qolmas,
Yo‘l tanigan – kech qolmas.

Yo‘lda yurgan – yo‘l tanir.
Cho‘lda yurgan – cho‘l tanir.

- **Maqollardagi bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlang.**

3-mashq. **O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering.**

Yo‘l belgilari haqida ertak

Bir paytlar bir guruh yo‘l belgilari bo‘lgan ekan. Avvaliga ular ozchilikni tashkil qilishgani uchun hech kim ularga e’tibor bermas ekan. Vaqt o‘tgani sari ular ko‘payib borishibdi. Ba’zi belgilar doimo ba’zi narsani **ko‘rsatishni** yoqtirishsa, boshqalari ba’zi vaziyatlarni **taqiqlashar**, yana bir xillari esa odamlarni xavf haqida **ogohlantirishar** ekan. Shunday qilib, belgilar guruhlarga bo‘lingan holda, odamlarga yordam berishga, ularning hayotini osonlashtirishga qaror qilishibdi.

- **Yo‘l belgilari nechta guruhga bo‘lingan ekan?**
- **Yo‘l belgilarining foydali jihatlari haqida nimalarni bilasiz?**

4-mashq. **She’rni ifodali o‘qing va ko‘chiring. Turdosh otlarni aniqlang va belgilang.**

Uch xil chiroq

Ko‘cha bo‘ylab yursang agar,
Atrofingga solgin nazar.
Chiroqlardan olgin saboq,
Yo‘l ko‘rsatar senga har choq.

Sariq chiroq hushyor etar,
O‘tma yo‘ldan shikast yetar.
Haydovchiga[2] to‘xtab tur deb,
Qizil chiroq xitob etar.

Yashil chiroq porlagan kez
Yo‘lni kesib o‘tib ol tez.
Ko‘chalar soz, obod-ravon,
Yo‘lni bilgan yurar omon.

Po‘lat Mo‘min



5-mashq. **Yo‘l belgilariga qarang. Ular piyodalar va haydovchilarga nimani anglatishini yozing.**

Namuna: *“Diqqat bolalar!” yo‘l belgisi haydovchilarni yo‘lda bolalar chiqib qolishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.*



Diqqat, bolalar!



Velosipedda harakatlanish taqiqlanadi



Piyodalar o‘tish joyi

- **Svetoforning qaysi chirog‘i yonganda yo‘lni kesib o‘tish mumkin?**
- **Siz yo‘l qoidalariga har doim amal qilasizmi?**

6-mashq. **Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan gapni gap bo‘laklari, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni esa so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil qiling.**

Yo‘lda

Bugun **bobom** bilan birgalikda **metroda** sayr qilmoqchi bo‘ldik. Bekatga **zamonaviy poyezd** kirib keldi, vagonga chiqib, qulay o‘rindiqlarga **joylashdik**. Poyezd sekin **qo‘zg‘aldi** va uning tezligi tobora ortib bordi. Qaysidir manzilga yetganimizda **vagon** ichi birdan yorishib ketdi. Poyezd yer ostidan chiqib, keng va **mahobatli** yerusti ko‘prigi uzra harakatlanar edi. Biz hayajon bilan vagon oynasidan atrofni tomosha qildik.

Oynadan poytaxtimizning keng va ravon yo‘llari yaqqol ko‘rindi. Yo‘llar chetidagi turfa xil **manzarali** daraxtlar va ko‘zni quvnatuvchi **gullar** atrofga o‘zgacha **fayz**[1] bag‘ishlab turardi.

Kundan kunga ona shahrimiz yanada obodonlashib, go‘zallashib bormoqda. Bunday **go‘zallikni** ko‘rib, yuragimiz faxrga to‘ldi.



Mavzu: So‘z va gap

Aa *Agronom – bu qishloq xõjaligi sohasining mutaxassisi.*

agronomiya
LUG‘AT

Agronomiya dehqonchilikning ilmiy asosi, uning hamma sohalariga doir ilmlar majmuyidir.

Agronom – qishloq xo‘jaligi, ayniqsa ekinlarni yetishtirish, tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis.

1-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘ying va ko‘chiring.

1. ... – ekinlarni qanday ekish, parvarishlash va yaxshi hosil olishni o‘rganuvchi hamda amalda tashkil etuvchi mutaxassis.
2. … va … qishloq xo‘jaligining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.
3. Hozirgi kunda issiqxonalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, qishning qahraton kunlarida ham barra … va … yetishtirilmoqda.

Foydalanish uchun so‘zlar: dehqonchilik[2], sabzavot, chorvachilik, agronom, ko‘katlar.



1. So‘z nimalardan iborat?
2. Gap nimalardan tuziladi?
3. Gap so‘z birikmasidan qanday farq qiladi?

2-mashq. Berilgan so‘zlardan sodda gaplar tuzing.

kuz, salqin, keldi, havo, yomg‘irli, kunlar, qisqaradi, bulutli, boshlanadi, hosil[3], marra, yig‘ishtiriladi, bajariladi

3-mashq. Gaplarning chegarasini aniqlang. Har bir gapning oxiriga nuqta qo‘ying va ko‘chiring.

Bobur bog‘i

Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni – podshosi bo‘libdi[5] u Hindistonning ko‘rkam joyiga bir katta bog‘ barpo ettiribdi dunyodagi bu eng katta bog‘ga turli yurtlardan olma-yu gilos, anor-u anjir, jiyda-yu yong‘oq, pista-yu bodom, nok, uzum-u o‘rik, behi-yu xurmo, ko‘ksulton-u olxo‘ri kabi mevalardan, xilma-xil gullardan olib kelib ko‘kartiribdi

xalq dunyoga dong‘i ketgan bu ulkan bog‘ga “Bog‘i Boburiy” – “Bobur bog‘i” deb nom qo‘yibdi

“Asotirlar va rivoyatlar”dan

- **Gapning birinchi so‘zini bosh harf bilan yozishni unutmang.**



5-mashq. Matnni o‘qing. *Qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni toping.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markazida, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Bu hududda yashagan xalqlarning tarixi ming yillarga borib taqaladi. Bu yerni haqli ravishda Sharqning eng qadimgi sivilizatsiya markazi deb atash mumkin.

Qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlar o‘zining betakror obidalari, mutafakkirlari, shoirlari hamda tabiblari bilan butun dunyoga tanilgan. Bugungi kunda ham ana shu boy tarixiy merosni asrab-avaylagan holda yurtimiz tinchlik, bunyodkorlik va zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan dadil odimlab bormoqda.

1. O‘zbekiston geografik jihatdan qaysi daryolar oralig‘ida joylashgan?
2. Nima uchun matnda O‘zbekiston ***Sharqning eng qadimgi sivilizatsiya markazi*** deyilgan? O‘z fikringizni matndagi ma’lumotga tayanib yozing.

6-mashq. Ko‘chiring. She’rdagi ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni toping va belgilang.

Poytaxtim Toshkent

Vatanim poytaxtisan,
Azim shahar Toshkentim.
Toshkentni non shahri deb
Tushungandir odamlar.
Qator-qator bozorlarda
Sarxil meva, bodomlar.
Ko‘rkkinangga yarashmoqda
Masjid-u madrasalar,
Seni yana ko‘rish uchun
Qo‘yishmoqda qadamlar.

Miltiqboy Xonnazarov




Mavzu: Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Aa

Bõsağada õtirar kampir,*
Qarshisida – teshik toğora.

* ***bo‘sag‘a*** – ostona

1-mashq. Chizmani o‘rganib, xulosa chiqaring. Misollar keltiring.



- Uy yonida mehmonxona bor. *(his-hayajonsiz, darak gap)*
- Men – begoyim bo‘lishni istayman! *(his-hayajonli, buyruq-istak gap)*
- Nima kerak senga, chol bobo? *(his-hayajonsiz, so‘roq gap)*



Darak gap, so‘roq gap, buyruq-istak gaplarga so‘zlovchining his-hayajoni qo‘shilishi natijasida *his-hayajonli (undov) gaplar* hosil qilinadi. Gap oxiriga *undov belgisi* qo‘yiladi.

Masalan: *Bugun yaxshi baho oldim! (his-hayajonli darak gap)*
Dalada qancha odam bor! (his-hayajonli so‘roq gap)
Qani endi, A’zamjon ham shunaqa aqlli bo‘lsa edi! (his-hayajonli istak gap)

So‘zlovchining hayajoni qo‘shilmagan darak, so‘roq, buyruq-istak gaplar *his-hayajonsiz gaplar* deyiladi.

2-mashq. Gaplarning maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang.

1. Har bir qush o‘zi uchun qulay joyga in quradi
2. Yurtimizdagi qadimiy maskanlarga sayohatga borganmisiz
3. Sinfxonasini toza saqlab, deraza tokchasidagi gullarga suv quying
4. Barcha o‘quvchilar a’lo baholarga o‘qisin[4]

- **Tinish belgilaridan mosini qo‘yib, ko‘chiring.**

3-mashq. She’rni ifodali o‘qing. So‘roq gaplarni ko‘chiring. Yozgan gaplaringizni his-hayajon bilan o‘qing.


Koptok talashib...

Koptok o‘ynardi Karim,
Janjal chiqardi Salim.
Koptogin tanib qolib,
Karimga shovqin solib,
Boshladi g‘idi-bidi:
– Koptok meniki, – dedi.
Keyin shapaloq tortdi,
Karimni qattiq turtdi.

Do‘stlar o‘rtaga tushdi,
Salimjonga deyishdi:
– Nega urasan uni?
– Nega turtasan uni?
– Bo‘laveradi ursam,
Karim o‘zimning ukam, –
Deya Salim taltaydi.
U haqmi? Kim aytadi?

E’tibor Oxunova

4-mashq. Rebusda yashiringan so‘z birikmasini toping. Shu so‘z birikmasi ishtirokida darak, buyruq-istak va so‘roq gaplar tuzing.





5-mashq. Matnni o‘qing. Adashib qolgan tinish belgilarini gaplarning maqsadiga ko‘ra o‘z o‘rniga qo‘yib, ko‘chiring.

Kimga salom berish kerakligini bilasizmi. Kim oldin salom berishi lozim! Ko‘pchilikka yolg‘iz kishi salom beradi? Otliq yoki mashinadagi kishi piyodaga salom berishi kerak? Yurgan kishi o‘tirganga, o‘tirgan yotgan kishiga salom beradi! O‘zingizdan kattaga salom berishni unutmang?

6-mashq. Ko‘chiring. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang.

Kuz tarovati

Kuz tabiatning eng go‘zal va saxovatli fasli. Keling, aziz bolajonlar, uning betakror tarovatidan birgalikda bahramand bo‘laylik! Hech oltinrang barglarni terib, chiroyli guldasta yasaganmisiz?

Dam olish kuni akam bilan uyimiz yonidagi bog‘ga bordik. **Bog‘dagi pishgan mevalarni terishga bog‘bon amakiga yordamlashdik.** Mehnatimizdan quvongan mehribon bog‘bon amakining samimiy olqishlari-yu maqtovlariga sazovor bo‘ldik. Qalbimiz quvonchga to‘ldi. Eh, kuz fasli qanday ajoyib!

- **Ajratib ko‘rsatilgan gapni gap bo‘laklari asosida tahlil qiling.**




Mavzu: Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari

Aa *Kitob – bebaho xazina.*



Kutubxona kitoblar saqlanadigan joy degan ma’noni anglatadi. Yurtimizda bunday maskanlar juda ko‘p. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi ana shunday asarlar saqlanadigan va kitoblar mutolaa qilinadigan eng yirik maskandir.

Dunyodagi eng katta kutubxona AQSHning Vashington shahrida joylashgan Kongress kutubxonasi hisoblanadi. Uning fondida yuz milliondan ortiq turli xil kitoblar, qo‘lyozmalar, xaritalar va rasmlar mavjud bo‘lib, kitob javonlarining umumiy uzunligi yuzlab kilometrni tashkil qiladi.



1-mashq. O‘qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang. Tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Kamola 4-sinfda o‘qiydi[4]
2. Voy, qanday go‘zal kapalak
3. Bugun sen kutubxonaga borasanmi
4. Kitoblarni ehtiyot qil
5. Yurtimiz doimo tinch bo‘lsin

2-mashq. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, o‘qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini ayting.

Tong nafasi

Zarrin nurlari-la sochimni silab
Quyosh uyg‘otadi erta tong bilan
Ko‘ksimni ochaman kengliklarga men
Yuragim uyg‘onar go‘yo bong bilan

Ro‘zaxon Safarboyeva

3-mashq. O‘qing. Ushbu gaplarni so‘roq va undov gaplarga aylantirib ko‘chiring.

1. Bizning sinfimiz maktabdagi eng namunali sinflardan biri.
2. Kitob insonning eng yaqin do‘sti hisoblanadi.
3. Bobolarimiz Vatan ozodligi uchun jasorat bilan kurashganlar.
4. Tabiatni asrash har bir insonning burchidir.
5. Mehnatsevar inson o‘z maqsadiga, albatta, erishadi.

4-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang. Husnixat bilan ko‘chiring.

Kuz qo‘shig‘i

O‘lkada qaynar hayot,
Dillarda sevinch kuyi.
Yasha, mehnatkash elim!
Kuzak – mo‘l hosil to‘yi.

Ergash Raimov

Qay biri?

– O‘rik shirinmi, olma
Bilasanmi, hoy Chaman?
– Ikkisidan olib kel,
Totib ko‘rib, aytaman!

Abdurahmon Akbar

- **Undov belgisi qatnashgan gaplarni qanday ohangda o‘qidingiz?**

5-mashq. Ko‘chiring. So‘roq va undov gaplarni aniqlang.

Ona sabog‘i

– Onajon, – dedi jajji Bobur, – bulutlarni qo‘l bilan ushlab bo‘ladimi?

– Bolajonim! – jilmaydi onasi. – Momiq[1] emaski, qo‘l bilan tutib bo‘lsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bug‘ holatida. Bug‘lardan esa bulutlar paydo bo‘ladi. Ular yomg‘ir yoki qorga aylanib yog‘ayotgandagina qo‘lingizni tutsangiz...

– Ha-a-a, angladim, angladim.

G‘iyos Komilov

Mavzu: Gapda so‘zlarning bog‘lanishi

Aa Loyxõrak – botqoqlik qushi.

botqoqlik
LUG‘AT

1-mashq. **O‘qing. So‘roqlar yordamida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qaysi gap bo‘lagi ekanini aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.**

Namuna: *osmonni qopladi.*

Osmonni quyuq bulut qopladi. Ular quyosh nurini to‘sib, atrofga **salqinlik** olib keldi. Bunday salqin ob-havoda maydalab **kuzgi** yomg‘ir yog‘a boshladi. **Ko‘chalarda yomg‘ir** suvlari to‘planib, ko‘lmaklar hosil bo‘ldi.

Bolalar deraza oldiga yig‘ilib, kuzgi **tabiatning** go‘zalligidan zavq olishdi. Ayrimlari qo‘llariga **rang-barang** soyabonlarini olib, hovliga chiqishdi. Kuz o‘zining **saxovatli** va fayzli kunlarini boshlab berdi.

- **Gapda so‘zlar o‘zaro nimalar vositasida bog‘lanadi?**


Gapda so‘zlar o‘zaro *-ni, -ning, -ga (-ka, -qa), -da, -dan* qo‘shimchalari va ohang yordamida bog‘lanadi.

Loyxo‘raklar ko‘l va daryo bo‘ylaridagi balchiqlarda juda ko‘p uchraydi. U juda uzun va ingichka tumshug‘i bilan ajralib turadi. Daraxtzor va butazorlarga yaqin nam yerlarni afzal ko‘radi. Loy va tuproq ostidagi zararli hasharotlar, qurtlarni yeb, tabiat muvozanatini saqlaydi. Biroq o‘zi ham yirtqich qushlar va yovvoyi hayvonlar uchun muhim oziq manbayi hisoblanadi.



2-mashq. **O‘qing. So‘roqlar yordamida gapdagi so‘zlarning bog‘lanishini aniqlang va chizmada tasvirlang.**

Namuna:



1. Sap-sariq barglar yerga to‘kilmoqda.[5]
2. Chiroyli kapalak gulga qo‘ndi.
3. Salqin shamol yuzimga urildi.
4. Tartibli bola darsga kechikmaydi.



Gapda so‘zlar o‘zaro bog‘lanadi.
- **Ega kesimga bog‘lanadi.**
- **Ikkinchi darajali bo‘laklar kesimga yoki egaga bog‘lanadi.**

Masalan: *mevalar pishdi; shirin qovun; qanotlarini qoqdi.*

3-mashq. **Rasm asosida berilgan so‘zlardan foydalanib, matn tuzing.**

Foydalanish uchun so‘zlar:
qovun, bobo, nabiralar, dala, hosil, kesmoq, mehmon qilmoq, yemoq, suhbatlashmoq, xursand bo‘lmoq, terib olmoq, shirin, mehribon, sariq, mazali, katta, Akmal, Madina, Sardor.



- **Matnga sarlavha qo‘ying.**

Gapda so‘zlar o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanadi.

4-mashq. O‘qing. Matndagi ma’no jihatdan bog‘lanmagan so‘zlarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib yoki boshqa so‘z bilan almashtirib, matnni ko‘chiring.

Iqtisodiy bilimga ega bo‘lmagan odam hamyonidan ayrilmaydi. Har kim iqtisodni ko‘chadan, o‘z xonadonidan boshlamog‘i kerak. Elektr, suv, gazdan tejab va tejamasdan foydalanishni odat qiling. Do‘kondan ortiqcha non sotib oling. Ortiqchasi isrof bo‘ladi. Shularga amal qilmagan bolakaydan yaxshigina iqtisodchi[2] chiqadi.

- **Fikr ifodalashda nimalarga e’tibor berishingiz kerak?**

“HA-YO‘Q” intellektual o‘yini.

1. Gapda so‘zlar o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanadi.
2. Ikkinchi darajali bo‘laklar faqat egaga bog‘lanadi.
3. Ega va kesim so‘z birikmasini hosil qiladi.

5-mashq. O‘qing. So‘roqlar yordamida gap bo‘laklarini aniqlang. Ularning bog‘lanishini chizmada tasvirlab yozing.

1. Men elimning yuragida yashayman.
2. Biz qovunlarni, tarvuzlarni mashinalarga ortdik.
3. Biz olmalarni, noklarni savatlarga joyladik.
4. Shirin mevalar bolalarga juda yoqdi.



Mavzu: Matn

Aa Ot kuzar, karvon* otar.

karvon

LUG'AT

***karvon** – uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi jonzotlar, aravalar (mashinalar) va ularni boshqaruvchi shaxslar qatori

1-mashq. Matnga mos ta'riflarni tanlang. Tanlovingizni tushuntiring.



- Matn bitta gapdan iborat bo'ladi.
- Matndagi gaplar ma'no jihatdan o'zaro bog'lanadi.
- Matnga sarlavha qo'yish mumkin.
- Matndagi gaplar bir-biri bilan bog'lanmaydi.

2-mashq. Chizmani ko'rib chiqing, xulosalang.

Matn turlari:

Hikoya qilish:	Tasvirlash:	Muhokama:
voqea va hodisalarni vaqt va ketma-ketlik tartibida so'zlab berish; u jo'shqin, jonli va ta'sirchan bo'ladi. Bunday matnlarga **nima? nima qildi? qachon? qayerda?** savollarini berish mumkin.	qatnashuvchi shaxslar, sujet bo'lmaydi. Unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. Bunday matnlarga **qanday? qanaqa?** savollarini berish mumkin.	biror fikrni isbotlash, sabab-oqibat aloqadorligini tushuntirish yoki muammoga mantiqiy baho berish. Bunday matnlarga **nega? nima uchun?** savollarini berish mumkin.



3-mashq. O‘qing, matn turini aniqlang. Javobingizni asoslang.

Kecha men sirkka borib, haybatli yo‘lbarslarning chiqishlarini tomosha qildim. Ularning chaqqonligini ko‘rib, qoyil qoldim! Yirtqichlar avval orqa oyoqlarida tik turishdi, so‘ng bir shohsupadan boshqasiga halqalar orasidan epchillik bilan sakrab o‘tishdi. Tomoshabinlar har bir muvaffaqiyatli sakrashdan so‘ng o‘z hayratlarini yashira olmay, qizg‘in olqishlashdi. Ushbu hayajonli tomosha xotiramda uzoq vaqt unutilmas taassurot qoldiradigan bo‘ldi.

***

Kecha men sirkda bo‘lib, yo‘lbarslarni ko‘rdim. Ular juda chiroyli va baquvvat hayvonlar ekan. Yorqin, yo‘l-yo‘l mo‘ynasi chiroqlar ostida yaltirar, yashil ko‘zlari esa xuddi olovdek yonardi. Panjalari juda baquvvat. Yo‘lbarslar na’ra tortganda ularning o‘tkir, oppoq qoziq tishlari ko‘rinar ekan. Ularning bu viqorli ko‘rinishi menda ham qo‘rquv, ham cheksiz hayrat uyg‘otdi.

***

Kecha men sirkda bo‘lib, yo‘lbarslarni ko‘rdim. Qiziq, nima uchun bunday kuchli va haybatli hayvonlar o‘rgatuvchiga bo‘ysunishadi? Balki hayvon o‘rgatuvchi ulardan qo‘rqmagani uchundir? Yoki u yo‘lbarslarga doim g‘amxo‘rlik qilib, mehr bergani uchunmi? Siz bu haqida nima deb o‘ylaysiz? Ehtimol, bu yerdagi asosiy sir qat’iy intizom va o‘zaro ishonchning o‘ziga xos uyg‘unligidadir.



Matn uch qismdan iborat bo‘ladi.

1. ***Kirish*** – matnning dastlabki qismi. Unda kitobxon mavzu, voqea sodir bo‘layotgan joy, vaqt yoki qahramonlar bilan tanishtiriladi.
2. ***Asosiy qism*** – matnning eng hajmli va markaziy qismi. Bunda voqealar rivoji so‘zlab beriladi, narsalarning xususiyatlari tasvirlanadi yoki ilgari surilgan fikr dalillar bilan isbotlanadi.
3. ***Xulosa*** – matnni yakunlovchi qism. Bunda aytilgan fikrlarga yakun yasaladi, mantiqiy xulosa chiqariladi yoki natija ko‘rsatiladi.

4-mashq. O‘qing. Matn turini aniqlang. Matnning xulosa qismini ko‘chiring.

Saxovatli fasl

Ona diyorimizga oltin kuz o‘zining barakali sepini yoydi. Salqin kechalar, ertalab maysa-ko‘katlar va dov-daraxtlar barglarini bezaydigan miltillovchi shudringlar kuz kelganidan darak bermoqda. Atrofda kuzning mayin va xushbo‘y havosi ufurib, tabiat o‘zgacha bir tarovatga burkandi.

Kuzning birinchi oyi mevalar, sabzavot mahsulotlari hamda tilyorar qovun-tarvuzlar serob bo‘lishi bilan dillarga quvonch baxsh etadi. Dehqon va bog‘bonlarimizning halol mehnati evaziga yetishtirilgan bu ne’matlar bozorlarimiz hamda xonadonlarimizga to‘kinlik olib kirmoqda.

Bir-biridan shirin va totli ne’matlarni ko‘rib, qalbimizda shukronalik tuyg‘usi jo‘sh uradi. Shu sababli ham xalqimiz kuzni bejiz rizq-ro‘z, to‘kin-sochinlik va saxovat fasli deb e’zozlamaydi. Tabiatning bu bebaho[2] tuhfalari har bir xonadonga fayz hamda quvonch bag‘ishlaydi.



Matn turini aniqlash algoritmi

1. Matnni o‘qing.
2. Matnda qaysi savolga javob berilayotganini aniqlang.
3. Savol va mazmunga qarab matn turini aniqlang.

5-mashq. a) Matn turlarini aniqlang. Hikoya matnini ko‘chiring.



Hovlimizda Bo‘ynoq laqabli juda chiroyli va baquvvat it bor. Uning qalin yungi, tikka quloqlari hamda porlab turadigan tim qora ko‘zlari bir qarashdayoq e’tiborni tortadi. Mayin va halqasimon dumi xursand bo‘lganida quvnoq likillaydi. Bo‘ynoq juda aqlli, chaqqon va sadoqatli jonivor.



Anvar ko‘l bo‘yida qanoti yaralangan oqqushni topib, uyida parvarish qildi.[5] Oqqush tez orada tuzalib, bola bilan do‘stlashib qoldi. Kuz kelgach, u Anvarga minnatdorchilik bildirib, to‘dasi bilan issiq o‘lkalarga uchib ketdi.



Nima uchun xaritalardagi ko‘plab orollar va joylar g‘aroyib nomlar bilan atalishini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Chunki har bir geografik maskan u yerda sodir bo‘lgan voqealar hamda boshdan kechirilgan sinovlarga qarab nomlangan. Ularning ortida insonlarning hayotiy tajribasi, mehnati va tabiat saboqlari yotadi.

b) Keyingi darsga “Shahrimdagi vokzal” mavzusida ma’lumot tayyorlang.

Mavzu: Matnning turlari (loyiha ishi)


Aa *Toshkent vokzalidan poyezd jõnab ketdi.*



Temiryo‘llar paydo bo‘lishi bilan vokzallar ham paydo bo‘la boshlagan. ***Vokzal*** so‘zi dastlab ommaviy sayilgoh (madaniy hordiq chiqarish joyi)ni anglatgan. Odamlar bu yerga parovozlarni tomosha qilish va hordiq chiqarish uchun kelishgan.



Loyiha ustida ishlash bosqichlarini ko‘rib chiqing.



1-mashq. O‘qing. Savollarga javob bering.

Kings-Kross vokzali Londonning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Undan tashqari shaharda yana 13 ta temiryo‘l stansiyasi mavjud (eng yiriklari – Paddington, Viktoriya, Vaterloo, Sent-Pankras, Liverpul).

Kings-Kross binosi Jon Ternbull va Lyuis Kabitt tomonidan loyihalashtirilgan. Vokzal 1852-yilda qurilgan. Binoning markaziy qismi o‘zaro bog‘langan ikkita ulkan gumbazsimon ravoqdan iborat bo‘lib, ularning ostida temiryo‘l relslari joylashgan. Ochilgan vaqtida *Kings-Kross* shaharning eng yirik transport markazi hisoblangan. XX asrdayoq yo‘lovchilar oqimi bir necha baravar ortgani sababli vokzalga yangi platformalar va temiryo‘l relslari qo‘shilgan.

Kings-Kross nafaqat o‘zining noyob me’morchiligi, balki Londonning diqqatga sazovor maskani sifatida ham mashhur. Har yili minglab sayyohlar bu yerga afsonaviy 9 ¾ platformasi yonida suratga tushish uchun oshiqishadi – ushbu platforma *Joan Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblar turkumida* tasvirlangan. Shuningdek, bu yerda film tasvirga olish ishlari ham bo‘lib o‘tgan, shundan so‘ng vokzalda alohida *chamadonlar va boyqush qafasi ortilgan yuk aravachasi* – badiiy kompozitsiya tayyorlangan.

Kings-Kross kutish zali, kassalar, chipta xarid qilish terminallari, ma’lumotnoma xizmati, yuk saqlash xonalari va bankomatlar bilan birga telefon, dush, do‘konlar hamda kafelarga ega ulkan vokzal hamdir.





1. *Kings-Kross* vokzali qayerda joylashgan?
2. Londonda nechta temiryo‘l stansiyasi bor?
3. Vokzal binosini kim loyihalashtirgan?
4. *Kings-Kross* vokzali ochilganidan buyon necha yil o‘tdi?
5. Nima uchun sayyohlar bu yerga oshiqishadi?

2-mashq. O‘z shahringizdagi vokzallar haqida nimalarni ayta olasiz? Vokzallar qanday maqsadda quriladi? Vokzalda o‘zni tutish qoidalari haqida so‘zlab bering.



3-mashq. Guruhlarga bo‘linib, topshiriqni bajaring. Loyiha ustida ishlash bosqichlaridan foydalanib, shahringizdagi vokzal haqida matn tuzing.

1-guruh. Hikoya matni.

Uyimizdan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda vokzal joylashgan. Bir kuni...

Tayanch so‘zlar: *keldik, sayr qildik, go‘zalligidan bahramand bo‘ldik, kelgusidagi sayohat quvonchini his qildik.*

2-guruh. Tasviriy matn.

Uyimizdan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda vokzal maydoni joylashgan. Bu...

Tayanch so‘zlar: *chiroyli, ozoda, gavjum, obod.*

3-guruh. Mulohaza matni.

Uyimizdan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda vokzal joylashgan. Nima uchun vokzal aynan shu yerda joylashgan? Chunki...

Tayanch so‘zlar: *aynan shu yerdan respublikamiz turli hududlari va chegaradosh davlatlariga eltuvchi temiryo‘llar o‘tgan.*

4-mashq. Hayvonlar haqida tasviriy matn yozing. Tuzgan matningizga sarlavha qo‘ying.

Mavzu: Matn turlari (hikoya, tasviriy, mulohaza)

Aa Qilichbozlik* bo'yicha jahon chempionati.

qilichbozlik
LUG'AT

**qilichbozlik* – qilich ishlatish mahorati, san'ati



O'zbekistonda ***qilichbozlik*** so'nggi yillarda jadal rivojlanib, xalqaro maydonlarda va Olimpiya o'yinlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan olimpiya sport turlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonlik yosh qilichbozlar Osiyo va Jahon chempionatlarida muntazam ravishda jamoaviy va shaxsiy birinchilikda sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda.

1-mashq. O'qing. Matn turini aniqlang.

Bir tup yong'oq

Kuzda Shukurjon bizni hasharga chaqirib qoldi. Biz birga peshingacha yong'oq qoqdik. Yong'oqlarni tomga olib chiqib, yoydik. Shu vaqt tom atrofida ikki-uchta zag'izg'on paydo bo'ldi. Pastga tushganimizdan so'ng zag'izg'onlar tumshuqlarida bittadan yong'oq olib, havoga ko'tarildi.

Aytishlaricha, bitta zag'izg'on har yili kuzda qirqtacha yong'oq o'g'irlar ekan. Bu yong'oqlarni u bir yerga ko'mib qo'yadi va istalgan vaqtda olib yeydi. Ko'pincha, hisobdan adashib, bu yong'oqlarning hammasini yemaydi. Natijada o'sha yerda qolib ketgan yong'oq kelgusi yili unib chiqadi.

- **Matn turini aniqlashda sizga qanday ma'lumotlar yordam berdi? Fikringizni izohlang.**



2-mashq. **Guruhlarga bo‘linib, matnlarni o‘qing. Matnlar nima haqida? Har bir matnni *kirish*, *asosiy* va *xulosa* qismlariga ajrating va ko‘chiring.**

Hikoya matni

Bir kuni qishda Madina quyonlarni boqayotgan edi. Pichan ostidan u muzlab qolgan qushchani topib oldi. Qizcha topilmasini o‘z nafasi bilan isita boshladi. To‘satdan qushcha qimirladi. Madina qushchani qutqarganini tushundi.



NEGA? 2

Tasviriy matn

Daraxt shoxida jajji bir chumchuq o‘tirardi. Boshining ustidagi kulrang patlari xuddi mittigina qalpoqchani eslatadi. Ko‘kragi va qorni ham nafis kulrang tusda bo‘lib, qanotlari to‘qroq jigarrangda tovlanadi. Tomog‘i ostidagi qora dog‘ esa xuddi keng bo‘yinbog‘ni taqib olgandek jozibali ko‘rinadi. Qanday chiroyli qush!

NEGA? 3

Mulohaza matni




Daraxtlarning salqin soyasida mo‘jazgina marvaridgul yashirinib olgan. Xo‘sh, nima uchun biz bu kichik va kamtarin gulni yaxshi ko‘ramiz?

Chunki marvaridgul nafaqat ko‘zga quvonch bag‘ishlaydi, balki inson salomatligi uchun ham juda katta foyda keltiradi. Undan tibbiyotda yurak xastaliklarini davolashda ishlatiladigan muhim dorilar tayyorlanadi.

NEGA? 4

3-mashq. Boshqotirmani yeching. Kalit so‘zni fonetik tahlil qiling.



		L		M		
			K	A		
				T	A	
		P		N		

4-mashq. O‘qing. Ushbu gaplarni matn deb atash mumkinmi?

Kunlar soviy boshladi. Lekin biz xafa bo‘lmaymiz. Iliq kunlar yana o‘lkamizda mehmon bo‘lishini kutib qolamiz! Qushlar ham issiq o‘lkalarga uchib keta boshladi.[4] Ular bosib o‘tadigan yo‘l esa uzoq va mashaqqatli.

- **Bu – matn ekanini asoslang. Sizda qanday turdagi matn hosil bo‘ldi?**
- **Matnga sarlavha qo‘ying va ko‘chiring.**

5-mashq. O‘qing. Matn turini aniqlang. Sarlavha qo‘ying va ko‘chiring.

Nima uchun itni insonning do‘sti deyishadi? It xavf-xatar bor joyda insonga yordamga oshiqadi. Itlar davlat chegaralarini ishonchli qo‘riqlashda askarlarning beminnat yordamchilaridir. Shu bilan birga zilzilalar vaqtida vayronalar ostida qolganlarni qidirib topishga va tog‘larda adashgan yoki xavfda qolganlarni qutqarishga ko‘maklashadi. Itlar haqida kitoblar yozilgan, filmlar suratga olingan. Ularga haykallar o‘rnatilgan. Odamlar ham bu vafodor jonivorlarni chin dildan yaxshi ko‘rishadi va qadrlashadi.

Mavzu: Mustahkamlash

Aa Bug‘doyzor – bug‘doy ekiladigan joy.



1-mashq. O‘qing. Ko‘chirib yozing. Bug‘doydan nimalar tayyorlanadi?

Bug‘doy



Bug‘doyning afzalligi ko‘p: u mo‘l hosil beradi hamda undan shirin va mazali mahsulotlar tayyorlanadi. Faqat bir tomoni achinarli: u zararli[2] hasharotlardan, qattiq sovuqdan va qurg‘oqchilikdan qo‘rqadi. Bug‘doy o‘ziga qunt va mehnat bilan qarashlarini xush ko‘radi.[4] Shundagina u bizga rizq ulashadi.

- **Matn voqeani so‘zlab bermayapti, tashqi ko‘rinishni ham tasvirlamayapti, balki bug‘doyning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsatib beryapti. Matn turini aniqlang.**

2-mashq. O‘qing. Matndan daraxtning tashqi ko‘rinishini tasvirlovchi o‘xshatishni topib, yozing.

Sayyohlar daraxti

Amerikada, Braziliyada, Kavkazning Qora dengiz sohillarida, cho‘llarda sayyohlar daraxti deb nomlanadigan ajoyib daraxtni uchratish mumkin. Bu daraxtning shoxi bo‘lmaydi, u yo‘g‘on tanasidan katta-katta barglar chiqaradi. Barglarining tuzilishi yelpig‘ichga o‘xshaydi. Bargning tanaga tutashgan joyida chuqurcha bo‘lib, bu yerda hamisha suv turadi. Chanqagan sayyohlar ana shu suvdan ichib, yana yo‘lda davom etaveradilar.

- **Matn turini aniqlang. Fikringizni izohlang.**
- **Sayyohlar suvni qanday qilib daraxtga zarar yetkazmasdan ichishlari mumkin?**

3-mashq. **“So‘z ichidan so‘z top” o‘yini.**

INSONPARVARLIK

4-mashq. **Sevimli kitoblaringiz haqida mulohaza matni tuzing va yozing.**

Men o‘qishni yaxshi ko‘raman.[4] O‘qish mening lug‘at boyligimni oshiradi, nutqim va tasavvurimni rivojlantiradi. Men … haqidagi kitoblarni o‘qishni yaxshi ko‘raman. Chunki…

5-mashq. **O‘qing. Matnga “Toshbaqa”dan tashqari yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin? O‘zingizga yoqqan sarlavhani qo‘yib, matnni ko‘chiring.**

Toshbaqa

Iroda ko‘m-ko‘k maysalar orasida bo‘ynini cho‘zib yotgan toshbaqani ko‘rib qoldi. Iroda unga yaqin kelib, tomosha qila boshladi. Toshbaqa qimirlamasdi. Toshbaqa uxlayotgan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi va uni uyg‘otish uchun toshkosasini avaylab siladi. Shu payt toshkosa ustidagi qon izlariga ko‘zi tushdi. Toshbaqani tezda uyiga olib keldi. Uning yorilgan toshkosasini doka bilan siqib bog‘lab qo‘ydi.

– Endi u yashaydi-a? – so‘radi Iroda dadasidan.

– Yaxshi parvarish qilsang, tuzalib ketadi, – dedi dadasi.

Bu so‘zlardan Iroda quvonib ketdi.

Tamilla Qosimova

- **Matn mazmuni asosida rejadagi tushirib qoldirilgan qismni to‘ldirib yozing.**

Reja:

1. **Kirish qismi:** Maysalar orasidagi toshbaqa.
2. **Asosiy qism:** ... .
3. **Xulosa:** Dadasining tasallisi va Irodaning quvonchi.

Mavzu: Tovush va harflar. Bo‘g‘in. Tovush va harf (fonetik) tahlili

Aa Toğga jala* yoğsa,
soyga suv toshar.



***jala** – kuchli yomg‘ir, ya’ni qisqa vaqt ichida juda ko‘p yog‘adigan yomg‘ir

Odatda, insonlar yomg‘irli kunni yaxshi ko‘rishadi. Bu ularni tinchlantiradi. Ijodkorlarni esa ilhomlantiradi. Yomg‘ir ovozi ostida notalar oson yoziladi. Shunda go‘zal, dilga yoqimli asar yaratiladi.

Keling, Frederik Shopenning yomg‘ir musiqasini tinglaylik.

5

- **Suvning shovqinidan tashqari yana qanday tovushlarni eshitdingiz?**

1-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni fonetik tahlil qiling.

So‘zlovchi yomg‘ir

Ishim o‘zi shunaqa:
Hamma joyga yog‘aman.
Qarindoshman qor bilan,
Shudringvoyga tog‘aman.

Yaylovdagi suruvdek
Ko‘kda kezib yursak ham,
Bizlar asli **Yerlikmiz**, –
Deydilar **Bulut** onam.

Abdurahmon Akbar

1. O‘zbek tilida necha tovush va harf bor?
2. Harf va tovushning bir-biridan farqi nimada?
3. Tovushlar yozuvda nima bilan ifodalanadi?
4. Qaysi tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi?

2-mashq. O‘qing. So‘zlarni fonetik tahlil qiling.

tong, salqin, maktab, chaqqon, maqtanchoq, hosildor

3-mashq. Bir harf bilan farqlanuvchi so‘zlarni juftlab yozing.

bedana	g‘alaba
ziyoda	necha
talaba	sedana
pishloq	sarishta
gujum	piyoda
kecha	hujum
farishta	qishloq






Tovush **– nutqning eng kichik, bo‘linmaydigan fonetik birligi.**

“HA-YO‘Q” intellektual o‘yini.

1. Unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 23 ta undosh tovush bor.
3. Unli tovush bilan tugagan bo‘g‘inlar yopiq bo‘g‘in deb ataladi.
4. Undosh tovush bilan tugagan bo‘g‘inlar yopiq bo‘g‘in deb ataladi.
5. *Apelsin* so‘zida bitta ochiq, ikkita yopiq bo‘g‘in bor.
6. *Mu-do-fa-a* bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga mos.

HA - YO‘Q

4-mashq. **Rasmlar nomining bosh harfidan foydalanib, so‘z tuzing. Ushbu so‘zni fonetik tahlil qiling.**



5-mashq. **Harflar ishtirokida so‘zlar tuzing. Kim ko‘p so‘z tuzsa, g‘olib sanaladi.**



6-mashq. **She’rni bo‘g‘inga ajratib yozing. Yopiq bo‘g‘inlarning tagiga bir chiziq chizing.**

Kuz qo‘shig‘i

Bog‘lar ko‘m-ko‘k ko‘ylagin
Bo‘yab oldi sariqqa.
Shildirar zilol suvlar,
Quloq solsang ariqqa.

“Qiyov-qiyov” turnalar
Janub tomon oldi yo‘l.
Ko‘kka qarab bolalar,
Qiyqirib silkitar qo‘l.

Ergash Raimov



Mavzu: Tovush va harflar. Bo‘g‘in. Tovush va harf (fonetik) tahlili

Aa Qarğa oğzini katta ochib, mazali buterbrodni tushirib yubordi.

XVIII asr boshlarida Buyuk Britaniyada ***buterbrod*** paydo bo‘lgan. Ba’zi badavlat odamlar go‘sht bo‘laklarini kesib, qo‘llarini ifloslantirmasdan ovqatlanishlari uchun ikki bo‘lak non orasiga qo‘yishgan. Shunday qilib, buterbrodlar bolalar va kattalar orasida mashhur bo‘lib ketgan.




1-mashq. Ko‘chiring. Topishmoqlarning javobini toping va yozing.

Sutdir uning onasi,
Qatiq[1], qaymoq og‘asi.
Ular ahil do‘st o‘rtoq,
Uning nomidir… .



Taomga maza qo‘shar,
Qozon, tandirda pishar.
Yesam[1] kirar tishimga,
Yemasam-chi, tushimga.



- **Ushbu mahsulotlarning foydasi haqida bilasizmi?**

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib, o‘qing.

k...mpot, l...g‘mon, q...duq, t...vuq, k...mpyuter, kar...m, ach...iq, h...vli, chumch...q, t...voq, k...nsert, t...mom, bizn...s, voq...a, muh...m

- **Qaysi tovush talaffuzida xatoga yo‘l qo‘yish mumkinligini ayting.**

3-mashq. Matnni o‘qing. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inga ko‘chirish qoidasiga ko‘ra ajratib yozing.

Katta Tag‘ob qishlog‘ida Mahmudjon ismli uyatchan bola yashardi.[5] Bir kuni u ammasinikiga mehmonga bordi. Ammasi uni uzum, anor, yangi yopilgan non bilan mehmon qildi. Mahmudjon uyalib dasturxonga qo‘l uzatmadi. Ichida esa “Qani endi o‘sha anorlardan bittasini yeb olsam”, deb o‘yladi.

Mahmudjon o‘rniga yotdi. Qorni ochligi uchun hech uyqusi kelmadi. Yangi yopilgan nonning hidi dimog‘iga urilib, ishtahasini qitiqlar edi.

- **Qaysi ikki bo‘g‘inli so‘zlarni bo‘g‘inga ajratib bo‘ladi, ammo satrdan satrga ko‘chirib bo‘lmaydi?**
- **So‘zlardagi ochiq bo‘g‘inga bir chiziq, yopiq bo‘g‘inga ikki chiziq chizing.**

Ochiq bo‘g‘in **– unli tovush bilan tugagan bo‘g‘in.**
Yopiq bo‘g‘in **– undosh tovush bilan tugagan bo‘g‘in.**

4-mashq. “Zanjir” o‘yini. Birinchi o‘quvchi bitta so‘z aytadi, ikkinchi o‘quvchi o‘sha so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan so‘z topib, o‘yinni davom ettiradi.

Namuna: *bola – anor – …*

5-mashq. Matnni bo‘g‘inga ajratib ko‘chiring. Faqat yopiq bo‘g‘indan iborat so‘zlarni belgilang.

Yomg‘irning turlari ko‘p. Yozda quyosh[1] charaqlab turgan paytda yog‘adigan yomg‘ir tomchilari nur ostida jilolanadi. Bunday go‘zal hodisa quyoshli yomg‘ir deb ataladi. Issiqdan chanqagan tabiat yomg‘irni intiqlik bilan kutadi. Yomg‘ir o‘simliklarni sug‘oradi, havoni musaffo[1] qiladi va atrofga go‘zallik[1] baxsh etadi.



Mavzu: Alifbo

Aa *Kometa – chang, muz va toshlardan tashkil topgan kosmik jism.*



Kometa (dumli yulduz) – muz, chang, qotib qolgan gazlar va mayda tosh bo‘laklaridan iborat osmon jismi. Ular odatda Quyosh atrofida juda cho‘zilgan elliptik orbitalar bo‘ylab harakatlanadi. Kometa Quyoshga yaqinlashgani sayin uning ichidagi muz va gazlar isiydi hamda eriy boshlaydi. Buning natijasida uning atrofida gaz va changdan iborat yorug‘ qobiq hamda Quyosh shamoli ta’sirida uzoqqa cho‘zilib ketadigan yorqin dum hosil bo‘ladi.



1-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni alifbo tartibida yozing.

Sayyora

Quyosh, oy, **yulduz** – **osmon**, **Koinot**, **borliq**, **jahon**. Besh qit’amiz jamuljam, **Sayyora**, deb olgan nom. Biz, farzandmiz – xizmatda, Sayyoramiz – izzatda. Yashar dunyo tinch, omon. Barcha xalq bo‘lsa posbon,

Qambar Ota


2-mashq. **“Harflar adashdi” ta’limiy o‘yini.**

IKTOB ATRAP LAMAQ MKTABA

3-mashq. **Kometalarning nomlarini alifbo tartibida yozing.**

Galleya, Enke, Vilda, Xiron, Mrkosa, Maristani, Mellish, Bruks, Daniel, Lavjoya, Bennet

4-mashq. **Rasmlarning birinchi harflaridan foydalanib, yashiringan so‘zni toping.**



- **Har bir harfning alifbodagi tartib raqamini bir-biriga qo‘shib, yig‘indisini toping.**

Tartib bilan berilgan harflar jamlanmasi *alifbo* deyiladi.

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20

Vv	Xx	Yy	Zz	O‘o‘	G‘g‘	Shsh	Chch	ng	’ (tutuq belgisi)
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30

5-mashq. Matnni o‘qing. Savollarga javob bering.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘zbek tilining sehrli bir mamlakatida harflar yashagan ekan. Ularning soni 29 ta bo‘lib, ular o‘z bilganlaricha tartibsiz yashar, boshpanasi ham yo‘q ekan. Oilada tartib bo‘lmagach, u yoqdan bu yoqqa sarson-sargardon bo‘lib yurishar ekan. Bunday hayot ularning joniga tegibdi va sho‘rlik harflar g‘amga botib, yig‘lab yuborishibdi.

Ularning yig‘isini sehrgar Alifbo eshitib qolibdi-da, shunday debdi:

– Aziz harflarim, sizlar birlashishingiz, uy-joy qurishingiz kerak, shunda o‘zingizga mos ish ham topiladi.

Harflar dono sehrgarning gapiga quloq solib, o‘zlariga shahar qurishibdi. Unga o‘zlarining qutqaruvchisi sharafiga **Alifbo** deb nom berishibdi.

1. Alifbo nima?
2. O‘zbek alifbosida nechta harf bor?
3. O‘zbek alifbosidagi harflar qanday guruhlarga bo‘linadi?

6-mashq. Berilgan alifbo tartibidagi harflar bilan boshlanadigan sayyoralarni nomlang. Ushbu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.



7-mashq. Alifbo tartib raqamidagi harflardan foydalanib, sinonim so‘zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

10 14 18 12 14 18

5 1 24 14

10 14 8 13 14 19

Mavzu: Jarangli va jarangsiz undoshlar

Aa *Vaqt oltindan qimmat.*



Oltin – yer ostidan topiladigan qimmatbaho va chiroyli sariq rangli metall. Oltinning foydali xususiyatlari shunchalik ko‘pki, u hatto zamonaviy texnologiyalarda ham ishlatiladi. Masalan, kompyuter va telefonlarning mayda qismlarini hamda elektr kontaktlarini tayyorlashda undan foydalaniladi. Bundan tashqari, bu metall tibbiyotda tishlarni davolashda, kosmik kema va yo‘ldoshlarni quyosh nurlaridan himoya qilishda ham asqatadi.



1. Jarangli undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
2. Jarangsiz undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
3. Jufti bor jarangli undoshlar nechta?
4. Qaysi undoshlarning jufti yo‘q?

Jarangli undoshlar: ***b, v, z, g, d, j, g‘, dj, y, l, m, n, ng, r.***

Jarangsiz undoshlar: ***p, f, s, k, t, ch, q, sh, x, h.***

1-mashq. Jarangli undosh bilan tugaydigan so‘zlarni yozing.

maktab, savod[1], o‘quvchi, nasihat, yo‘lak, oftob, havo, voqea, novvot, mehmon[3], non, kundalik, Davron, darvoza, yulduz, adolat, telefon, farzand, tomosha, tuproq, bog‘

- **Istalgan so‘zlar ishtirokida ikkita gap yozing.**

2-mashq. **Zargarlik buyumlarining nomini yozing.**



- **Ushbu so‘zlarning jarangli undoshi tagiga bir chiziq, jarangsiz undoshlariga ikki chiziq chizing.**
- **Zargarlik buyumlari nimalardan tayyorlanadi?**

3-mashq. **Jarangsiz undoshlarni tushirib qoldirib, mevalar nomini toping. Shu so‘zlar ishtirokida matn tuzing.**


PMTQAXNSHDCHAKTRXIXNFOTLTXMSXASHQ

FLSKITMCHOXPNSHQAHKNTCHOXPSHRQHPXT

4-mashq. **Matnni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning jarangli undoshi tagiga bir chiziq va jarangsiz undoshlariga ikki chiziq chizing.**

Parashut sporti XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Bu parashutdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan **aviatsiya** sporti turlaridan biridir. Hatto XV asrdayoq **Leonardo da Vinchi** maxsus matodan yasalgan chodir haqida eslatib o‘tgan. Uning ta’rifi zamonaviy parashut tuzilishini juda eslatib yuboradi.

Vaqt o‘tishi bilan parashutlarning turli xillari: yuk, qutqaruv, **harbiy** va **sport** parashutlari yaratildi. Bugungi kunda parashutlar juda keng tarqalgan. Parashut sporti bilan shug‘ullanish uchun iroda kuchi va yaxshi sport tayyorgarligi kerak.



Leonardo da Vinchining birinchi parashuti eskizi

Mavzu: So‘zlarda tovush ortishi

Aa Koinot* – butun borliq.



***koinot** – moddiy olamning kuzatish mumkin bo‘lgan, bizni o‘rab turgan barcha qismi; butun borliq, yer-u osmon, olam

Ayrim so‘zlarning talaffuzida unlilar orasida *y* undoshi qo‘shib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

Masalan: *oid, doim, shoir.*

Ayrim so‘zlarning qo‘sh undoshlari o‘rtasida qisqa *i* tovushi talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi.

Masalan: *fikr, ufq, matn.*

1-mashq. O‘qing. Husnixat bilan ko‘chiring. Talaffuzida tovush ortadigan so‘zlarni topib, belgilang.

1. Koinot cheksiz sirlarga boy bo‘lib, undagi yulduzlar soni Yerdagi barcha qum zarrachalaridan ham ko‘proqdir!
2. Ulug‘bek bobomiz koinot va yulduzlar olamini o‘rganishda ilmga asoslangan yangi astronomiya[3] faniga poydevor qo‘ygan.

2-mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing, ortiqcha yozilgan *y* harflarini tushirib qoldirib, xatosiz ko‘chiring.

Bugun maktabimizda mashhur shoyir bilan uchrashuv bo‘ldi. Biz stol atrofida doyira bo‘lib o‘tirib, samimiy suhbatlashdik. Uchrashuvda odob-axloq qoyidalariga oyid ko‘p qiziqarli[2] she’rlar o‘qildi.

3-mashq. Quyidagi so‘zlarni ikkita savatga joylang.

shior, quyon, doir, maishiy, qoya, foiz, tayyor, buyuk, million, teatr, dunyo, quyosh, tabiat, biologiya, diyor



Talaffuzida ***y*** eshitilsa ham, yozuvda ifodalanmaydigan so‘zlar



So‘z tarkibida ***y*** harfi bor va yozuvda ifodalanadigan so‘zlar.

- **Ikkala savatga ham taalluqli bo‘lgan so‘zlarni toping va ular ishtirokida to‘rtta gap tuzing.**

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Har bir o‘yin va musobaqada o‘ziga xos ... mavjud.
2. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va g‘azalnavis ... .
3. Matematika darsida sirkul yordamida ... chizdik.[5]
4. Inson tanasining yetmish … suvdan iborat.

Foydalanish uchun so‘zlar: shoir, qoida, foizi, doira.

- **Yozgan so‘zlaringiz qanday qoidaga mos keladi? Fikringizni izohlang.**

5-mashq. “Stadionda” mavzusida hikoya yozing. Talaffuzida tovush ortishi yuz beradigan so‘zlardan foydalaning.

Mavzu: So‘zlarda tovush tushishi

Aa Mening gõzal va mehmondõst shahrim.



***mehmondo‘st** – mehmonni ardoqlaydigan va uni xush kayfiyatda kutib oladigan inson

1-mashq. **O‘qing. Husnixat bilan ko‘chiring.**

Shahrimda kuz

Kuz kelishi bilan jonajon **shahrim** oltin libosga burkandi. Salqin shabada uning keng **bag‘rini** quchib, ko‘chalarga o‘zgacha osoyishtalik va fayz bag‘ishladi. Daraxtlardan to‘kilgan sariq barglar xiyobonlarni xuddi oltin gilamdek qopladi.[4] Men har bir faslda o‘zgacha go‘zal bo‘ladigan shahrimni juda yaxshi ko‘raman.

- **Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar imlosiga e’tibor bering.**

Ba’zi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, unli tovush tushib qoladi.

Masalan: *bo‘yin – bo‘ynim.*

2-mashq. **Maqollarning ma’nosini izohlang. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni so‘z tarkibi bo‘yicha tahlil qiling.**


Namuna: ***o‘rningni*** *– o‘rin so‘ziga II shaxs birlik* ***-ing*** *egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda asosdan* ***i*** *unlisi tushib qoladi,* ***-ni*** *so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchasi qo‘shiladi.*

Bilib o‘tir **o‘rningni**,
Har yerga suqma **burningni**.

Onaning **ko‘ngli** bolada,
Bolaning ko‘ngli dalada.

Oltovlon ola bo‘lsa, **og‘zidagin** oldirar,
To‘rtovlon tugal bo‘lsa, ko‘kdagini undirar.

3-mashq. **Rasmlarning birinchi harfidan so‘zlar hosil qiling. Ularni so‘z tarkibi bo‘yicha tahlil qiling.**



4-mashq. **Gaplarni ko‘chiring. Tovush tushishiga uchragan so‘zlarni namuna asosida yozing.**

Namuna: *Singlimning **(I sh. birl.)** mushugi Momiq erkalanib miyovlaydi.*

1. Singlimning mushugi Momiq erkalanib miyovlaydi.
2. Ahmad amaki o‘g‘liga halol va rostgo‘y bo‘lishni uqtirdi.
3. Onam qornim ochligini payqab, darhol dasturxonga issiq taom tortdi.
4. Ukamning burni sovuqda qizarib ketganini ko‘rib, uning bo‘yniga sharfimni o‘rab qo‘ydim.

5-mashq. **She’rni ifodali o‘qing.**

Yomg‘ir yog‘aqol!

Yomg‘ir, yog‘aqol bugun,
Yashnasin keng dalalar.
Yam-yashil o‘tloqlarda
O‘ynab-kulsin bolalar…

Yomg‘ir, yog‘aqol bugun,
Ekinlarga berib jon.
Gul Vatanim qo‘ynini
Mo‘l hosilga etgil kon.

Munira Abdushukurova

- **Ko‘chiring. Tovush tushishiga uchragan so‘zni aniqlang. So‘z tarkibi bo‘yicha tahlil qiling.**

Mavzu: So‘zlarda tovush almashishi

Aa *Naqsh – buyumlar bezagi.*



Naqsh muayyan madaniyat ta’sirida shakllangan bezakdir. Bunday tasvirlardan kiyim-kechak, ro‘zg‘or buyumlarini bezashda foydalaniladi. Naqshlar qadimdan baxt va farovonlik ramzi hisoblanib kelinadi.

Ayrim *k* va *q* undoshlari bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda qanday eshitilsa, shunday yoziladi, ya’ni ba’zan *k* undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g‘* tovushiga o‘zgaradi.

Masalan: *tuproq – tuprog‘i, terak – teragi.*

1-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarga egalik qo‘shimchalarini qo‘shing. Natijada qanday hodisa ro‘y berdi? Fikringizni izohlang.

Turar boylikka kon tog‘i,
Quyosh erur chin **o‘rtoq…** *(III sh.birl)*.
O‘ynab oqar sho‘x **buloq…** *(III sh.birl)*,
Mening yurtim, O‘zbekiston.

Zebiniso Ahmedova

2-mashq. Ko‘chiring. Tovush almashishi sodir bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

1. So‘ri burchagida o‘tirgan kampirning havorang ko‘ylagi, oq ro‘moli o‘ziga yarashgan.
2. Oila jamiyatimizning eng muqaddas va ajralmas bo‘lagidir.
3. Mehmonlar uchun qadrdon xonadonimizning[2] eshigi har doim ochiq.

3-mashq. Maqollarni o‘qing. Tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni toping va tahlil qiling.

Namuna: *boyligi = boylik + i (III sh.birl.)*

Yer boyligi – el boyligi.

Harakating – sog‘liging,
Mehnating – boyliging.

Erinchoq ikki ishlar,
Oxiri barmog‘in tishlar.

Oila ahil bo‘lsa, omad o‘z oyog‘i bilan kelar.

Har ko‘katning o‘z suygan tuprog‘i bor.


4-mashq. Berilgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalaridan qo‘shib, namunadagidek yozing.

Namuna: *quloq – qulog‘im, quduq – qudug‘i.*

ertak, bo‘taloq, to‘garak, tirnoq, tumshuq, ko‘ylak, buloq, irmoq

- **Hosil bo‘lgan so‘z shaklini tushuntirib bering.**
- **Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

5-mashq. Ko‘chiring. Topishmoqning javobini toping. Tovush almashishi ro‘y bergan so‘zlarni aniqlang.



Qulog‘i zo‘r yelpig‘ich,
Tumshug‘ida barcha kuch.
Toshni ko‘taradi dast,
Bahaybat[2] zo‘rligi rost.

Hayvonlarning polvoni,
Hindistondir makoni.
Esga tushdimi endi,
U qanday hayvon edi?

- **So‘zlarda tovush almashishi nima sababdan ro‘y berdi?**

Mavzu: Bo‘lim yuzasidan mustahkamlash

Aa *Alifbo – insoniyatning eng buyuk kashfiyoti.*



Dunyodagi eng qisqa alifbo 12 ta harfdan iborat bo‘lib, Rotokas tilida, Papua-Yangi Gvineyada qo‘llaniladigan alifbo hisoblanadi.

Dunyodagi eng uzun alifbo 74 ta harfdan iborat Kxmer (Kamboj) alifbosidir.

Dunyoda eng keng tarqalgan alifbo: Lotin alifbosidan 100 dan ortiq til foydalanadi.

Xitoy tilida alifbo mavjud emas, u ierogliflar yordamida yoziladi. Lekin xitoycha tovushlarni ifodalash uchun lotin alifbosidan foydalaniladi.

1-mashq. Tushirib qoldirilgan bo‘g‘inlarni tiklab, so‘zlarni ko‘chiring.

an…qa, ar…mas, be...noh, ...jayra, hoki…yat, mas’u…yat, namu…, yangi…moq, za…rat, …jima

2-mashq. *Singil*, *ko‘ngil*, *o‘rin* so‘zlariga egalik qo‘shimchasini qo‘shing, so‘z asosida sodir bo‘layotgan tovush o‘zgarishlariga e’tibor bering.

3-mashq. Ikkala so‘z bulutidagi umumiylikni toping. Ular bir-biridan qanday farq qiladi? Fikringizni izohlang.






4-mashq. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari buzilgan o‘rinlarni toping. Xatolarni to‘g‘rilab, ko‘chiring.

a-ri-za, o-i-la-viy, a-ka-de-mik, o-lam, o-ri-yat-li, mu-do-fa-a, zo-o-park, mu-o-ma-la, e-lak, e-shit-moq

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli undosh tovushlarni qo‘yib, ko‘chiring. Ularni izohlang.

shogir…, odo..., farzan..., ...arq, mi...bar, ma...sad, ozo..., obo..., to‘...son, dori...ona, ...alq

6-mashq. *K* tovushi bilan boshlanib, *k* tovushi bilan tugaydigan so‘zlar asosida tuzilgan boshqotirmani yeching.



1. Zarur, darkor
2. Teshik, o‘yiq joy
3. Yovvoyi hayvon
4. Tanlov, musobaqa

7-mashq. Ko‘chiring. Tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni belgilang.

1. Yaxshi niyat va harakat bilan o‘rganilgan ilm xazinaga tengdir.
2. Har kuni bajariladigan kichik bir mashq ham vaqti kelib ulkan g‘alabalarning poydevoriga aylanadi.
3. Qornimga emas, qadrimga yig‘layman.
4. Mumtozbek qishlog‘imiz chiroyiga havas qildi.[4]
5. Koinotga sig‘mas kuching bo‘lsa ham, zaiflarga ozor berma.

Mavzu: **Unlilarning talaffuzi va imlosi**

Aa Õrmon – tabiatning yashil dorixonasi.



O‘rmonlar sayyoramizdagi kislorodning asosiy qismini ishlab chiqaradi va havoni zararli karbonat angidrid gazidan tozalab turadi. Yuzlab yillik tarixga ega bo‘lgan keksa daraxtlarning tanasidagi kovaklar yuzlab turdagi qushlar, ko‘rshapalaklar va mayda sutemizuvchilar uchun qulay uy vazifasini bajaradi.




1-mashq. O‘qing. So‘zlarni yoddan yozing.

zamon, quyosh, volida, yulduz, o‘zbek, poyezd, teatr, doim, rioya, mozaika[1]

2-mashq. Tushirib qoldirilgan unli harflarni qo‘yib, so‘zlarni yozing.

s...vol	j...xori	b...dring	...nor
b...ho	direkt…r	yuld...z	uyq...
tux...m	t...l...fon	b...hor	v...qt
g…vda	ovq...t	f...ye	p...lov
t...l...gram	t...nna	t...rvuz	uz...m

3-mashq. Krossvordni yeching. So‘zlarning talaffuzi va imlosiga e’tibor bering.



Bo‘yiga:

1. Hayvonot bog‘i.
2. Tirik organizmlarni o‘rganadigan fan.
3. Yer tuzilishi va yerosti boyliklarini o‘rganuvchi olim.

Eniga:

4. Qurilish binosi.
5. Hayvonlar haqidagi fan.

Foydalanish uchun so‘zlar:
zoologiya, geolog, inshoot, zoopark, biologiya.

- **Qo‘sh va qator unlili so‘zlarning yozilishini yodda saqlang.**

4-mashq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

sharoit, material, stadion, oila, doim, teatr, okean, manfaat, qoida, matbuot, saodat, manba, o‘simlik, million, milliard, inshoot, koordinata, muallim

5-mashq. She’rni ifodali o‘qing.

Kuz

Yana **xazonrezgilik**,
Bog‘lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgulik,
Anhorda suv tiniqdi.

Tursunboy Adashboyev

- **Ko‘chiring. Unli harflarni belgilang.**
- **Ajratib ko‘rsatilgan so‘z ishtirokida gap tuzing.**



6-mashq. Topishmoqlarning javobini topib, ularni fonetik tahlil qiling.


Momiq yungli bir maymoq,
O‘zi ko‘p o‘yinqaroq.
Sabzi, karam yemishi,
Qo‘sh kurak – ikki tishi.

Xavf bo‘lsa koptok bo‘lib,
Igna-ko‘rpa yopadi.
Zumda ko‘z ochib turib,
Ilgarilab chopadi.

To‘rtdir uning oyog‘i
Temir mixli tuyog‘i.
Manzilga yetishtirar
Toshdan qattiq tuyog‘i.

Uzun ichak,
Ichi tugunchak.
Tanasi chipor,
O‘rmondan chiqar.






7-mashq. Matnga sarlavha qo‘ying. Husnixat bilan ko‘chiring.

Kuz kunlari edi. Erta tongda sayr qilish uchun opam bilan ko‘chaga chiqdik. **Biz xiyobonning uzun yo‘lagini tanladik.** Yo‘lning ikki chetiga chiroyli gullar ekilgan edi. Gullar orasida tipratikanni ko‘rib qoldik.[4] Uni yaqindan tomosha qilmoqchi edik, u bizdan cho‘chib, qochib qoldi. Biz uni uzoq vaqt izlay olmadik, chunki havo ancha salqin edi. Sekin-asta quyosh yuzini bulut qoplab, yomg‘ir yog‘a boshladi. Yomg‘irda qolib ketmaslik uchun tezda uyga qaytdik.



- **Ajratib ko‘rsatilgan gapni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.**

Mavzu: **Undoshlarning talaffuzi va imlosi**

Aa *Kõrgazmada mashhur dizaynerning krossovkalar kolleksiyasi namoyish etildi.*

Kolleksiya – biror narsa-buyumlarning to‘plami. Bunga chig‘anoqlar, rasmlar va tangalar kolleksiyalarini misol keltirish mumkin.



1-mashq. Berilgan rasmlar asosida gaplar tuzing. Gaplarda tutuq belgili, qo‘sh va qator undoshli so‘zlardan foydalaning.









Foydalanish uchun so‘zlar: markalar, tangalar, musiqa asboblari, Ra’no, Jur’at, Sur’at, yig‘moq, rasmlar kolleksiyasi.

- **Bu so‘zlarning talaffuzi va imlosini yodda saqlang.**

2-mashq. Topishmoqning javobini toping. Husnixat bilan ko‘chiring.

G‘it-g‘it deydi, ishlaydi,
Yerga kukun tashlaydi.

- **Javobingizga undosh harflar qo‘shib yangi ma’noli so‘zlar hosil qiling.**
- **Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

3-mashq. Qo‘sh undoshlar qatnashgan qushlar nomini yozing.

Namuna: *chittak, …*

4-mashq. Qatordagi so‘zlarni ajratib oling va ular ishtirokida ikkita gap tuzing.

MODDAJIDDIYTONNAG‘ALLAQIMMATNOVVOTFAVVORAIZZAT

5-mashq. Gaplarni husnixat bilan ko‘chiring.

1. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etgan har bir **zavod** tabiatni muhofaza[1] qilishga katta hissa qo‘shadi.[4]
2. **Poyezd** orqali sayohat qilish ham xavfsiz, ham juda qulaydir.
3. Har kuni tong otishi bilan **sharq** tomondan taraladigan nur butun olamga hayot baxsh etadi.

- **Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi imlo qoidalariga asosan yozilgan?**

6-mashq. Nuqtalar o‘rniga *d* yoki *t* harflarini qo‘yib, husnixat bilan yozing.

tashkilo..., e’tiqo…, itoa…, qa…, oi…, sho…, muro…, di…, nu…q, ozo..., ...unyo, oqiba..., plas...ik

- **Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Mavzu: X va H undoshlarining talaffuzi va imlosi

Aa Elga xizmat – oliy himmat.

Mehrjon

LUG'AT

Mehrjon – Sharq xalqlarining, jumladan, ajdodlarimizning kuzgi tengkunlik va yig‘im-terim yakunini nishonlaydigan qadimiy bayramidir. ***“Mehr”*** so‘zi do‘stlik, muhabbat, mehr-oqibat va quyosh ma’nosini bildiradi. Qadimda bu bayramda odamlar bir-birlariga mehr ulashgan, yaxshi tilaklar bildirishgan. Qadimgi an’analarga ko‘ra, Mehrjon kunida odamlar qizil, sariq, to‘q sariq va zarg‘aldoq rangdagi liboslar kiyishgan. Bu kuzgi tabiatning rangi, quyosh nurlari va pishib yetilgan hosilning jilosini anglatgan.

1-mashq. She’rni ifodali o‘qing, *x* va *h* undoshli so‘zlarni ko‘chiring.

Mehrjon

Xush kelibsan, Mehrjon,
Saxovatlim, sehrjon.
Shirin-shakar, lazzatli,
Qalb to‘rida izzatli.
Sensan tenglik bayrami,
Bag‘rikenglik bayrami.

Quchog‘ing bolga to‘la,
Hosil, iqbolga to‘la.
Qulluq saxovatingga[2],
Huzur-halovatingga.
Lazzatlisan, sehrjon,
Xush kelibsan, Mehrjon!

Qambar Ota



X undoshi **tilning tanglayga nisbatan joylashishiga ko‘ra chuqur til orqa (q, g‘) undoshlari sirasiga kiradi, qattiq talaffuz qilinadi.**

H undoshi **til undoshlaridan farq qilib, alohida bo‘g‘iz undoshi hisoblanadi, yumshoqroq talaffuz qilinadi.**

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga *x* va *h* undoshlaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

ol…o‘ri, …aridor, ta…ta, me…ribon, …ashar, be…i, ja…on, …o‘roz, tari…, …unar, …o‘jalik, …ursand, de…qon, su…bat, …azon, makkajo‘…ori, sayo…at, ...afta

- **Shu so‘zlar ishtirokida uchta gap tuzing.**

3-mashq. Yashiringan so‘zlarni toping.





- **Bo‘g‘iz undoshi ishtirok etgan so‘zlar qanday talaffuz qilinyapti?**

4-mashq. Berilgan so‘zlardan gap tuzing.

qilsang | hurmat | ko‘rasan | hurmat[1] | keltirar | mehnat | baxt | keltirar | yaxshilik | baxt

- ***X*** **va *h* undoshlari ishtirok etgan so‘zlar tagiga chizing.**

5-mashq. **Rasmlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qiling.**



- **So‘zlarning talaffuzi va imlosini eslab qoling.**

6-mashq. **Nuqtalar o‘rniga *x* va *h* undoshlaridan mosini qo‘yib, gaplarni husnixat bilan ko‘chiring.**

1. Il…om …o‘roz so‘zini …ato yozdi.
2. De…qon dalaga no‘…at ekdi.
3. Mash…ura …andalakni yoqtiradi.
4. Ba…tiyor …ayvonot bog‘iga bordi.
5. Kal…at kaklikka …ujum qildi.[5]
6. Ba…orda dara…tlar gullaydi.
7. Me…monlar dastur…on atrofida jamlandilar.
8. Sinf ta…tasiga …arflar yozildi.
9. Dalalarda makkajo‘…ori poyalari yig‘ishtirilmoqda.
10. Bu…oroga sayo…atga bordik.[4]

- **Yozgan *x* va *h* undoshli so‘zlar imlosini yodda saqlang.**

Mavzu: **Bosh harflar imlosi**



Aa “Õzbek xalq ertaklari” kitobini õqidim.

1-mashq. **O‘qing. Ertak nomlarini uch guruhga bo‘lib ayting.**

O‘zbek xalq ertaklari – xalqimizning asrlar osha sayqallanib kelayotgan boy ma’naviy merosidir. Ertaklar o‘z mazmuniga ko‘ra sehrli, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarga bo‘linadi.

Sehrli ertaklar insonlarni mo‘jizaviy va sirli olamga yetaklab, g‘ayritabiiy qahramonlar sarguzashtlarini hikoya qiladi.

Maishiy ertaklarda oddiy insonlarning mehnati, oqibat va adolat madh etiladi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda jonivorlar orqali insonlarga xos fe’l-atvor majoziy yo‘l bilan ochib beriladi.

O‘zbek xalq ertaklari “Ziyrak uch yigit”, “Ur, to‘qmoq!”, “Yoriltosh”, “Halollik”, “Kenja o‘g‘il”, “Ilm afzal”, “Ikki saxiy”, “Aqlli bola”, “Hakka bilan tulki”, “Baqa bilan taqa”, “Donishmand yigit”, “Omonatga xiyonat”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy” shular jumlasidandir.

Korxona, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san’at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: *“Malika” firmasi, “Damas” avtomobili.*

Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomidagi har bir so‘zning ilk harfi bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: *O‘zbekiston Respublikasi.*

2-mashq. Ertak va multfilm nomlarini o‘qing. Ularni to‘g‘ri yozing.

oppog‘oy, uch ayiq, qirol sher, yetti gnom, qizil qalpoqcha, bek va lola, pomidor do‘ppi, bilimdon, quvnoqvoy, ochko‘z boy, aqlli qarg‘a.

Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so‘zlarning har biri bosh harflar bilan yoziladi.

***Masalan:* *“O‘zbekiston Qahramoni”* unvoni.**

***“Sog‘lom avlod uchun” ordeni, “Shuhrat” medali* singari mukofotlarning birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi.**

3-mashq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni yozing.



O‘zbekiston Qahramoni – O‘zbekistonning oliy darajadagi unvoni. O‘zbekiston Qahramoni” **O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti** tomonidan beriladi. “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan shaxsga oliy nishon – **“Oltin Yulduz” medali** va unvon berilganligi to‘g‘risidagi hujjat topshiriladi. “Oltin Yulduz” medali oltin qotishmasidan tayyorlanadi va u old tomonida har bir qirrasining ikki yonidan oltin nurlar taralgan sakkiz qirrali yulduz shaklida bo‘ladi. “O‘zbekiston Qahramoni” faqat bir marta beriladi.

4-mashq. Matnni husnixat bilan ko‘chiring.

Yo‘lchiyeva Munojotxon Abduvaliyevna – xonanda. 1994-yili O‘zbekiston xalq artisti, 2021-yili O‘zbekiston Qahramoni, 2024-yilda Tojikiston xalq hofizi faxriy unvoni bilan taqdirlangan. O‘zbek mumtoz ashulalari ijrochisi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosi.

5-mashq. **Topishmoq-she’rni ifodali o‘qing. Topishmoqda sanab o‘tilgan ismlarning familiyasini kitoblar taxlamidan topib, yozing.**

Hozir bitta-bittalab
Ismlarni aytaman.
Yozib bo‘lganingdan so‘ng
Maqsadimga qaytaman.

Bo‘lmasa, yoz, boshladik:
Quddus, Ilyos[1], Miraziz,
Anvar, Kavsar, Tursunboy,
Po‘lat, Umida, Aziz.

Topishmog‘im mana shu –
Surishtir, qara kitob.
Sanab o‘tilganlarning
Familiyasini top.

Yodingda tut, bularning
Bari nosir, shoirdir.
Yozganlari, avvalo,
Bolalarga doirdir...

Abdurahmon Akbar



- **Ushbu adib va shoirlarning asarlaridan namuna keltiring.**

6-mashq. **Savoldan foydalanib, avtomobil haqida muhokama matni yarating.**
Qaysi turdagi avtomobil tabiat va toza havo uchun eng xavfsiz hisoblanadi? Nima uchun?

Foydalanish uchun so‘zlar: benzin, gaz, elektr quvvati, avtomobil, dvigatel, elektromobil, quvvatlantirish stansiyasi, tejamkorlik, atrof-muhit, toza havo, chiqindi, ekologik xavfsiz, afzallik, kamchilik, shaxsiy tanlov, kelajak transporti.